

## **INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR QO‘SHIG‘I “ALLA” NING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**Orziboyeva Xurshidaxon Tavakkal qizi**

Farg‘ona Davlat Universiteti Lingvistika  
(Ingliz tili) 2- bosqich magistranti  
xurshidaorziboyeva92@gmail.com

**Nurmatova Munisxon Mashrabovna**

munis.nurmatova.74@inbox.ru  
Farg'ona Davlat Universiteti ingliz tili  
kafedrası katta o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Alla qo‘shig‘i bolalar adabiyotidagi janr bo‘lib, ona yoki tarbiyachi tomonidan go‘dakni tarbiyalash va uxlatish uchun ijro etiladi. Ushbu tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi alla qo‘shig‘ining lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki ingliz va o‘zbek alla qo‘shiqlari ikkala xalq madaniyatida bir xil maqsadlarda foydalaniladi, lekin mavzular o‘rtasida o‘xshashliklar bor bo‘lishiga qaramay ular turli xil ifoda usullariga ega.*

**Kalit so‘zlar:** *Alla, xalq og‘zaki ijodi, madaniyat, kuy, lingvokulturologiya, folklorshunoslik.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Песня Аллы – жанр детской литературы, исполняемый мамой или воспитателем для воспитания и убаюкивания малыша. В данном исследовании рассматриваются лингвокультурологические особенности песни «Алла» на английском и узбекском языках. Исследование показывает, что английские и узбекские алла-песни используются для одних и тех же целей в обеих народных культурах, но, несмотря на сходство между темами, имеют разные способы выражения.*

**Ключевые слова:** *Алла, фольклор, культура, мелодия, лингвокультурология, фольклористика.*

### **KIRISH**

Alla bolalar uchun yaratilgan xalq og‘zaki ijodi namunasi hisoblanadi. Og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan og‘zaki amaliyot, muayyan madaniyat tarixini o‘rganishning ajoyib manbaidir. Alla qo‘shig‘i xalq hayotida bolalarni uxlatishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bu qo‘shiq xalqlarning o‘tmishi,

qiziqishi va an'analarini ifodalagani uchun tilshunoslikning muhim tadqiqot predmeti hisoblanadi. Bu kuyda ishlatiladigan til mamlakatning tarixi urf-odatlar va qiymatini o'z ichiga olgan madaniyatni ko'rsatadi. Yagona lingvistik birlik yordamida boshqa mamlakatlarning turmush tarzi va tafakkuridan xabardor bo'lishingiz mumkin.

Ma'lumki "madaniyat" so'zi nimani anglatishini aniq bilish qiyin bo'lsada, unga ta'rif berganimizda shu narsa ma'lum bo'ldiki, madaniyat ham tarixiy ham bevositadir. U kishilar hayotida va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi.<sup>1</sup> Alla turli uslubiy xususiyatlarni, ma'lum bir xalq madaniyatining fikrlash namunalarini namoyon etadi va bu albatta til yordamida amalga oshadi. Har bir til va madaniyat o'ziga xos konvensiyalarga, karakterli strategiyalarga va muloqot o'z ta'sirini boshqarishi uchun o'ziga xos qurilmalarga ega.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Butun dunyo bo'ylab folklorshunoslikka oid tadqiqotlarda alla umuminsoniy hodisa deb ta'riflangan, chunki qadim zamonlardan beri deyarli barcha davrlarda va xalqlarda mavjud bo'lgan. Madaniyatlararo alla qo'shiqlari turli uslubiy xususiyatlarga ega bo'lib, madaniyatning fikrlash namunalarini ko'rsatib beradi. Go'dakka alla kuylagan onaning psixologik kechinmasini ushbu allaning so'zlarida ko'rish mumkin. Turli millatga mansub onalar o'z farzandiga allani kuylash chog'ida osoyishtalikni his qiladilar.

"Alla" so'zi chig'atoycha "allala" shaklida bo'lib "boshning orqasi" degan ma'noni anglatadi deb ta'rif bergan L.Z. Budakov. Bu esa bizga kelib "alla" shakliga o'zgargan bo'lib, bolani allalab, ovutib uxlatishni anglatib kelmoqda. Ingliz tilida esa "lullaby" deyilib, uni ikki qismga bo'lish mumkin: etimologik jihatdan aytilsa "lull" so'zi tinchlanib uxlamok, degan ma'noni, "aby" esa yaqin, oldida degan ma'nolarni anglatadi.<sup>3</sup>

Dunyo bo'ylab xalq qo'shiqlariga oid tadqiqotlarda ham alla alohida o'rganib kelingan soha hisoblanadi. Misol uchun o'zbek tadqiqotchilarining folklorshunoslikka oid kitoblarida alla qo'shig'i haqida turli qarashlarni ko'rishimiz mumkin.

"Xalq og'zaki ijodining eng rivojlangan janrlaridan biri alladir. Bu kuy bolalar beshikdaligida, hali tili chiqmasdanoq aytiladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, beshik qo'shig'i bolaga ona suti bilan kiradi".<sup>4</sup> Haqiqatdan ham, alla barcha xalq madaniyatida mavjud bo'lib, bola tug'ilgandan keyin dunyodagi mehr bilan aytiladigan qo'shiq. Tabiiyki beshikda tebranayotgan go'dak allaning so'zlarini idrok

etolmaydi, bola uchun allaning kuyi, ijro usuli ahamiyatli. Shuning uchun ham ona bu qo'shiqni butun vujudi bilan go'dakka ruhan ta'sir ko'rsatishga harakat qilib aytadi.

Umuman olganda alla ona uchun go'dak farzandi bilan his-tuyg'ular orqali munosabat o'rnatish va tarbiyalash vositasidir. Alla lirik asar bolib kuylovchining ichki kechinmalarini namoyon etadi.

### **NATIJA VA MUHOKAMALAR**

O'zbek va ingliz alla qo'shiqlarining lingvomadaniy xususiyatlarini, madaniyatga oid lisoniy birliklarini ochib beradigan bo'lsak quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. O'zbek allasini oladigan bo'lsak, ko'pida tarixdagi qadim zamon shart-sharoitlari, ayollarning boshidan kechirganlari, mashaqqatli mehnatlari tasvirlangan. O'sha davr madaniyatining yorqin tasvirlarini ko'z oldimizga keltirsak, ko'p ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Olma yuzligim jonim, alla,  
Ko'za yuzligim jonim, alla,  
Qora ko'zligim jonim, alla,  
Shirin so'zligim jonim, alla,<sup>5</sup>

Lirik she'rdagi har bir so'zning matndagi ma'nosi va uning madaniyatdagi kelib chiqish tarixini o'rganmay turib uni talqin qilib bo'lmaydi. Shuning uchun yuqoridagi alladan olingan parchadagi "olma" haqida o'z fikr va mulohazalarimizi bayon etamiz. Olma detali ko'p xalqlar adabiyotida uchraydi shuningdek, o'zbek adabiyoti janrlarida ayniqsa ertak va dostonlarda sehrli olma detalini uchratganmiz. Shomirza Turdimov olmani ramz sifatida bola va sevgi ma'nolariga ega deb ta'kidlagan.

Alla desam, bog'im bor, alla,  
Biring olma, biri nor, alla,  
Shukronalar aytarman, alla,  
Qanchalar tirnoqqa zor, alla.

Bizga ma'lumki o'zbek adabiyotida chiroyli yuzni qizil olmaga oxshatishadi. Shuning uchun biz chaqaloqni yuqoridagi kabi olma yuzligim deb atashimiz mumkin. Uchinchi va to'rtinchi misralarni tahlil qiladigan bo'lsak ma'lumki, o'zbek xalqi madaniyatida farzand ko'rmagan oilalarni "tirnoqqa zor" deb tushunadilar va unga Alloh tomonidan tirnoq, ya'ni farzand berganligi uchun shukronalar aytayotganini tushunishimiz mumkin.

Tog'lardagi toychog'im, alla,  
Bog'lardagi gulu lolam, alla,  
Bo'ynimdagi munchog'im, alla,

Tunda yongan chirog'im, alla.<sup>6</sup>

Urush bo'lgan yillarda ajdodlarimizga eng katta yordamchi bu ot hisoblangan. O'zbek xalqining ezgulik ruhi sifatida tarixda qolgan. Otning yosh bolasi toychoq deb ataladi, shuning uchun ham onalar bolalarini "toychog'im" deb erkalaydilar. Alla so'zlari yordamida bolani gulga hamda munchoq va chiroqlarga o'xshatishadi. Bunda munchoq o'zbek ayollarining sevimli zargarlik buyumlari hisoblanib, ona farzandini qimmatbaho va o'zining sevimli buyumiga o'xshatadi. Chiroqqa o'xshatishining sababi, bilamizki chiroq bu o'zidan nur taratib yo'llarimizi yoritib beradigan vosita, va ona o'zining umr yo'llarini yoritib berguvchi vositani farzandi deb biladi. Ingliz tillarida ham shu kabi o'xshatmalar mavjud. Quyidagi misralarga e'tiborimizi qaratadigan bo'lsak, ularda ham ingliz madaniyatining tarixini ko'rishimiz mumkin.:

O little elves, her tiny body  
Like a white flake of snow it is,  
Drooping upon the pale green hood  
Of the chill snowdrop.<sup>7</sup>

Bu misralarni o'qiganimizda nimaga inglizlar bolasini kichkinagina bo'lgan jonzot elflarga o'xshatyapti degan savol tug'iladi. Ingliz tarixi va madaniyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak ular madaniyatida elflar va sehrarlik haqida turli afsonalar mavjud. Ularda aytilishicha, inglizlar elflardan qo'rqan va ularga g'ayritabiiy kuch sifatida qaralgan. inglizlar elflardan bolalarini himoya qilish maqsadida farzandlariga Alfred, Elf deya ismlar qo'yishgan. Odamlarga o'xshab ketadigan, katta sehrga ega kichik jonzot deb tasavvur qilingan va bu bolalar qo'shiqlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Shu bilan bir qatorda, bolalar tanasini oppoq qor parchasiga o'xshatilyapti, bunda albatta biz ingliz madaniyatini ko'rishimiz mumkin, chunki ozbek millatida qorga o'xshatish mavjud emas. O'zbek allasi namunalarida esa kichik hajmdagi hayvonlarga, ya'ni hayvonlarning bolasiga o'xshatilgan.

Angels shall come  
And stand closely to keep  
Watch over you, little baby.  
Bye-bye to sleep, little baby.<sup>8</sup>

Ingliz allalarida deyarli ko'pida farishta detalini ko'ramiz va bu inglizlarda farishta xudoning yordamchilari, insonlar va xudo o'rtasida vositachi, insonlarni yovuzlardan himoya qiluvchi degan e'tiqod mavjud. Yuqoridagi misralardan ko'rinib turibdiki, farishtalar kechasi go'dakning huzuriga kelib ularni yonlarida uxlashlari mumkin degan ma'noni tushunamiz. Shuningdek ingliz va o'zbek madaniyatida

“farishta” deb insonlarni atashadi va bu yaxshi fe’l-atvorli, xulqli insonni tasvirlash uchun ishlatiladi.

Ona allasi orqali o‘z madaniyatini farzandiga singdiradi, lekin hozirgi zamonga kelib ba’zi onalar yoki tarbiyachilar chaqaloqqa alla aytishdan ko‘ra unga telefon orqali yozib olingan kuyni qo‘yib beradilar. Lilian Mongeaue aytganidek, chaqaloqlar uchun tanish ovozlar, tanish qo‘shiqlar, mehri ovoz ohangi va tabassumli chehralar muhim, bu chaqaloqlarni mamnun qiladigan narsalardir. Haqiqatdan ham, alla otanonalar va go‘dak o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, his-tuyg‘ularni almashish uchun muhim vositadir.

### **XULOSA**

Alla xalq madaniyatining muhim elementi bo‘lib, o‘ziga xos madaniy ma’no va ahamiyatga ega. Ushbu madaniy element uzoq vaqtlardan beri turli xalqlar va madaniyatlarda mavjud. Yuqoridagi bahs-munozaralardan ko‘rinib turibdiki, allaning asosiy vazifasi nafaqat bolani uxlatish, balki aloqa, ta’lim va madaniy merosni saqlashni o‘z ichiga oladi. Ingliz tilida allalar matnlarida uchraydigan so‘zlar, o‘xshatmalar mamlakatning iqlimi, joylashishi, diniy qadriyatlarini aks ettirsa, o‘zbek allalarida asosan maishiy foydalanishga oid elementlar ishlatilgan.

### **REFERENCES**

1. D.Harper “Lullaby” Online Etymology Dictionary. 2013
2. Farog‘at Karimova “Lingvokulturologik features of English and Uzbek lullabies. 2022 may
3. Frances Lincoln, Baba Ryhme time, China 2008,53.
4. Mamasoli Jumaboyev “Bolalar adabiyoti va Folklor” O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti Toshkent- 2006
5. Omonullo Madayev “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” Toshkent, Mumtoz so‘z. 2013.
6. O.Safarov , O‘zbek xalq allalari. O‘qituvchi, 1999,69b
7. <https://www.edweek.org/teaching-learning/ask-a-scientist-do-lullabies-for-infants-really-work/2016/01>